

Atoqli shoira Zulfiyaxonim tavalludiga bag'ishlangan "Zulfiya vafo timsoli" nomli ijodiy kecha tadbiri bo'lib o'tdi

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyida bahorning ilk kunida atoqli shoira **Zulfiyaxonim tavalludiga bag'ishlangan "Zulfiya vafo timsoli" nomli ijodiy kecha tadbiri bo'lib o'tdi**. Tadbir davomida shoira hayoti va ijodi haqida so'z yuritilib, uning adabiyotimizdagi o'rni alohida e'tirof etildi.


Tadbirda litsey o'quvchilari Zulfiyaxonimning yuraklarni larzaga soluvchi she'rlarini ifodali o'qib, sahna ko'rinishlari orqali ayol latofati, sabr-qanoati va mehr-muhabbatini madh etdilar.

Kecha yakunida esa **"Ayol qalbi sadosi" nomli insholar tanlovida** faol ishtirok etgan o'quvchilar e'lon qilinib, ularning ijodiy ishlari yuqori baholandi. Tanlov g'oliblari faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Mazkur tadbir shoira xotirasiga hurmat bajo keltirish bilan birga, yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va ularni adabiyotga oshno etish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.













SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati